

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI

NAVOIYXONLIK VA NAVOIY IJODIY AN'ANALARINING
QO'QON ADABIY MUHITI RIVOJIDAGI O'RNI*Saydganiyeva Gulbahor**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Qoʻqon adabiy muhiti, navoiyxonlik, mumtoz adabiyot, muxammas, anʼana, adabiy meros, badiiy matn, mustaqillik davri adabiyoti.

Annotatsiya: Maqolada XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari Qoʻqon adabiy muhitiga oid manbalar asosidagi tahlillar berilgan. Shu davrdagi anʼanalarning bugungi kungacha davom etib kelayotganligi masalasi yoritilgan. Qoʻqon adabiy muhitining oʻziga xos bir qirrasini boʻlgan navoiyxonlik kechalari va navoiy anʼanalarning bardavomligiga doir mulohazalar bayon qilingan. Mumtoz adabiyot anʼanalariga ergashib yozilgan Qoʻqon shoirlarining muxammaslarini tadqiq etishda qiyosiy-tipologik metoddan foydalanildi. Navoiyxonlik Qoʻqon adabiy muhitini tadqiq qilishda oʻziga xos adabiy va madaniy-maʼrifiy manba sifatida xizmat qilishi mumkin ekanligi aniqlandi. Shuningdek, Qoʻqon adabiy muhitida mumtoz adabiyot anʼanalarning barhayotligi va bardavomligi, Qoʻqon adabiy muhitining oʻziga xos jihatini belgilovchi xususiyatlardan biriga aylanganligi ilmiy xulosa sifatida berildi. Ushbu adabiy muhitning oʻzbek adabiyoti rivojidagi oʻrni koʻrsatildi.

THE ROLE OF NAVOIY RECITATION AND NAVOIY'S CREATIVE TRADITIONS IN
THE DEVELOPMENT OF KOKAND'S LITERARY ENVIRONMENT*Saydganiyeva Gulbahor**The Legislative Chamber of the Oliy Majlis
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Kokand literary environment, Navoiyxonlik, classical literature, mukhammas, tradition, literary text, literature of

Abstract: The article provides an analysis of sources related to the Kokand literary environment of the second half of the 20th – beginning of the 21st centuries. The issue of continuing the traditions of that era to the present day is

the independence era.

covered. Opinions are presented about the duration of the Navoikhonlik traditions - Navoi readings, discussion and analysis of the poetry of Alisher Navoi, the creation of poems in a style similar to Navoi by modern poets. In the analysis of mukhammas - poetic imitative five-line poems written in the traditional style of classical Uzbek literature; a comparative typological method was used. It was determined that Navoikhonlik can serve as a unique literary, cultural and educational source in the study of the Kokand literary environment. At the same time, the vitality and duration of the classical traditional poetic forms of the Kokand literary environment show the degeneration of its iconic feature into a new era. The place of this literary environment in the development of Uzbek literature is shown.

НАВОИВЕДЕНИЕ И ТВОРЧЕСКИЕ ТРАДИЦИИ НАВОИ РОЛЬ В РАЗВИТИИ ЛИТЕРАТУРНОЙ СРЕДЫ КОКАНДА

Сайдганиева Гульбахор

Законодательная палата Олий Мажлиси

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:

Кокандская литературная среда, навоихонлик, классическая литература, мухаммас, традиция, художественный текст, литература эпохи независимости.

Аннотация:

В статье приводится анализ источников, относящихся к Кокандской литературной среде второй половины XX – начало XXI вв. Освещен вопрос продолжения традиций той эпохи до настоящего времени. Изложены мнения о продолжительности традиций навоихонлик – навоиских чтений, обсуждение и аналитика поэзии Алишера Навои, создание стихотворений в стиле, наподобие Навои современными поэтами. В анализе мухаммасов – поэтических подражательных пятистиший, написанных в традиционном стиле классической узбекской литературы, был использован сравнительно-типологический метод. Было определено, что навоихонлик может послужит своеобразным литературным, культурно-просветительским источником в изучении Кокандской литературной среды. Вместе с этим, живучесть и продолжительность классических традиционных поэтических форм Кокандской литературной среды показывают перерождение его знаковой черты в новую эпоху. Показано место данной литературной среды в развитии узбекской литературы.

KIRISH

Adabiy-madaniy merosni o'rganishda davrga hamnafas holda tadqiqotlar olib borish, milliy adabiyotimizdagi turli regionlar adabiy muhitini yetarlicha o'rganish, ularning dunyo tamadduniga qo'shadigan hissasini ko'rsatib berish bugunning dolzarb vazifalaridandir. Dunyoda uzoq asrlar davomida insoniyat tarixida muhim jihatlari bilan yorqin iz qoldirib kelgan hududlar qatorida Xo'qandi latif ham ziyolilari, so'zga zukko insonlari, adabiyoti,

hunarmandlari, urf-odatlari, madaniyat va san'at darg'alari bilan ajralib turadi. Bu adabiy muhitdan XIX asr boshlaridan bugungi kunga qadar 400 ga yaqin shoirlar yetishib chiqqan¹.

O'zbek adabiyotshunosligida "Qo'qon adabiy muhiti" deganda, asosan XX asr boshlarigacha bo'lgan davrga e'tibor qaratib kelingan. 1920 yilgacha bo'lgan ikki asr oralig'ida Qo'qonda juda ko'p shoirlar yetishib chiqdi va mumtoz adabiyotimizni boyitdi. O'tgan asr adabiyotshunosligi esa XX asr adabiyotini o'rganish bo'yicha asosiy e'tiborni markaz – Toshkentda shakllangan adabiy muhitga qaratgan va zamonaviy Qo'qon adabiy muhiti bir qadar e'tibordan chetda qolib kelgan edi. O'tgan asrning 2-yarmida Qo'qonda adabiy muhitning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ldi, biroq bu hodisalar yetarlicha o'rganilmagan. Masalan, mumtoz janrlar, aruzning bardavomligi, yangi janr va uslublarning qo'llanishi, rus va o'zbek tillaridagi zullisonayn adabiy muhit borligi hodisalari respublikamizning boshqa hududlarida ko'zga kam tashlanadi. O'tgan asrda Qo'qon shahrida Yozuvchilar uyushmasi Qo'qon bo'limi² va viloyat Adabiyot muzeyi tashkil etilishining o'zi adabiy muhit kuchli ekaniga dalolatdir. Bugungi adabiy jarayon ijodkorlari salmoqli asarlarini taqdim etmoqdalar, adabiyot maydoniga yangi nomlarning kirib kelayotgani ham kuzatilmoqda. Bu jihatlar o'z tadqiqini kutib turibdi.

Ushbu maqolada Qo'qon adabiy muhitining o'ziga xos bir qirradi bo'lgan navoiyxonlik kechalari va navoiy an'analarining bardavomligi jihatidan mulohazalarni o'rta tashladik va ushbu adabiy muhitning o'zbek adabiyoti rivojida tutgan o'rnini ko'rsatib berishni maqsad qildik.

Maqola yozish jarayonida qiyosiy-tipologik, tavsifiy va matn tahlili kabi metodlardan foydalanildi. Jumladan, mumtoz adabiyot ang'analariga ergashib yozilgan Qo'qon shoirlarining muxammaslarini tadqiq etishda qiyosiy-tipologik usuldan foydalanildi, chunki asar mohiyati, shoirlar mahorati aynan mana shu usul bilan ko'rinadi. Tavsif va matn tahlili ham, albatta, maqsadni bayon etishda qo'l keladi. Badiiy matn sinchkovlik bilan tahlil qilishni, har bir so'z ostidagi tagma'nolarni, obrazlar tashigan poetik ma'nolarni yuzaga chiqarishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, yuqoridagi usullar asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Shunisi muhim va qiziqki, Qo'qon adabiy muhiti 19 asr boshidan paydo bo'lib, hozirga qadar o'zbek adabiyoti uchun ham nom sifatida, ham adabiy jarayonning bir bo'lagi sifatida o'z

¹ K'qon shahridagi Adabiyot muzeyi xodimlari, adabiyotshunos olimlar A'hadjon Ma'daminov, Abdullo t'if Turdialievlar bilan su'bat cho'gida aniqlangan. 2017 yil yanvar oyida A.Turdialievdan e'zib olingan su'batlar audioformatda mavjud.

² Uyushma K'qon b'limi 1933 yilda birinchi marta, 1990 yilda yangidan tashkil etilgan. 1990 yilda tashkil etilgan uyushma ham u'z hisob raqami, muxriga ega b'lgan. Muxr va hisob raqam nusxalari mavjud. Akademik A.Qajomov va f.f.nomzodi, Sharif Rizo ha'eti va ijodi tadqiqotchisi A.Olim(1931-2020)dan olingan intervyular (23.04.2017 va 30.04.2017 da e'zib olingan) E'zuvchilar uyushmasi b'limi dastlab K'qonda 1933 yilda tashkil etilib, Ad'ham Ra'amat ra'is etib tayinlangani aytiladi. A.Qajomov arxivida saqlana'etgan "Yangi Far'ona" gazetasi 1939 yildagi sonida berilgan "Muxim bildiri'ish" e'yloni "K'qon e'zuvchilar soveti" nomidan berilgan. Qarang: Imomnazarov M. Akademik Azizxon Qajomov maktabi. – Toshkent: Mumtoz s'z, 2010. – B.184.

dolzarbligini saqlab kelmoqda. Sababi, ayni muhitda she'r va shoirlik ikki asrdan beri mavjud. Balki mazkur muhit hamma davrlarda ham muttasil bir xil yuqori darajada o'zligini namoyon etmagandir. Ammo, asosiysi, uning mavjudligi va yashovchanligida. Ayni muhitdagi adiblar va ularning ijod namunalari devon, tazkira va bayozlardan XX asr boshigacha o'rin olib keldi. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan mahalliy matbuotda ham ijod namunalari chop etila boshladi. Saroylarda rivojlangan Qo'qon adabiy muhiti she'rxonlik, turli adabiy yig'inlar, navoiyxonlik, bedilxonlik kabi davralarga ko'chdi. Hozirda ham Qo'qon shahrida navoiyxonlik davralari uyushtirib turiladi.

Aslida, adabiy muhitni ushlab turuvchi turli minbarlar mavjud bo'ladi. Masalan, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi uzoq vaqt davomida zamonaviy o'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligi uchun bosh minbar bo'lib kelmoqda. U barometr kabi butun O'zbekistondagi adabiy jarayonni ko'rsatib turadi. "Qo'qon adabiy muhiti" tushunchasi hozirda torayib, ko'proq regional Qo'qon shahri va uning atroflarini bildirsa-da, o'z vaqtida u Qo'qon xonligi territoriyasidagi adabiy muhitni anglatgan. Qo'qon adabiy muhiti an'analari kuchli bo'lgan va ular O'zbekiston mustaqilligi davrida yangidan jonlana boshladi, balki yangidan tug'ila boshladi. Qo'qon shahrida "Qo'qon adabiy muhiti" gazetasining 2022 yili tashkil etilishi (birinchi soni 2022 yil, 27 sentyabr kuni chop etildi), aynan Qo'qonda nashr etila boshlagani mantiqiy va ilmiy asosga ega³.

Buyuk ipak yo'lida joylashgan yirik savdo shaharlari iqtisodiy jihatdan rivojlangan bo'libgina qolmay, madaniy jihatdan ham bemisl darajada rivoj topishini Qo'qon shahri misolida ko'rish mumkin. Tarixan shoir-yozuvchilar, san'atkorlar yurti bo'lgan bu maskanda aholi o'rtasida ixtiyoriy ravishda navoiyxonlik, bedilxonlik, fuzuliyxonlik kechalari o'tkazib kelingan. Bunday navoiyxonlik kechalari ham shaharning qadimiy an'alaridan hisoblanadi. Ushbu kechalarga kasbi, ilmi, jamiyatdagi toifasidan qat'iy nazar, she'r ilmini, san'atini sevgan, so'z sehriga oshiqlar yig'ilganlar, Navoiy baytlarini sharhlab, ulardagi ma'nolarni tuymoqdan olam-olam zavq olganlar.

Mahallalarda o'tkaziladigan navoiyxonliklar o'zining qadim tarixiga ega bo'lib, bu haqda yoshi ulug' insonlar o'z xotiralarida doimo so'zlab kelganlar, ya'ni Qo'qonda oilalarda qo'niqo'shni, qarindoshlar ixtiyoriy ravishda yig'ilishib, Navoiy, Bedil, Mashrab, Huvaydo asarlarini o'qib, sharhlaganlar, masnaviyxonliklar o'tkizganlar. Bu an'ana ayollar o'rtasida ham o'tkazib kelinganligi aytiladi. Tuzum o'zgarishi, ya'ni sovet hukumatining iqtidorga kelishi bilan hayot tarzi ham o'zgarib, bunday navoiyxonliklar ancha kamayib ketadi. Adabiyotshunos olim Lutfulla Zohidovning xotirlashicha, navoiyxonlik yig'inlarida turli kasb egalari to'planishgan. Ularning

³ Ўзбек журналистикаси тарихи бўйича энг мукаммал тадқиқотлардан бири ф.ф.н. Бойбўта Дўстқораев (1941-2021) томонидан ёзилган. Қаранг: Дўстқораев Б. Ўзбек журналистикаси тарихи. Тошкент, 2009.

ichida L.Zohidovning sinfdoshlari ham bor bo'lgan va kasbi bo'yicha g'isht teruvchi va qassobchilik bilan shug'ullanuvchi kishilar ham navoiyxonlik kechalarida ishtirok etib, Navoiyni tahlil qilganlar⁴.

Shunisi e'tiborga molikki, mahallalarda o'tkaziladigan navoiyxonlik kechalari o'tmishda qolib ketmasdan, faqat Qo'qon shahridagina bizning kunlarimizgacha ham davom etib kelmoqda. Jumladan, shahardagi 17-mahallada navoiyxon kechalari o'tkazilib turgan. Sovet hokimiyati parchalangach, Mustaqillikka yaqin ana shunday kechalar yana tiklana boshlaydi. Qo'qonda Navoiyxonlik kechalari yangidan uyushtirilganiga salkam 30 yil to'ldi. Birinchi marta Qo'qon shahrining "Hojibek guzari" mahallasida "Hojibek" madrasasida kasbi haydovchi bo'lgan navoiyxon inson Ibrohimjon Saydullayev tomonidan navoiyxonlik tashkillangan ("Hojibek" madrasasi 1803 yili Hojibek ismli shaxs tomonidan qurilib bitkazilgan. Hojibek Qo'qon xoni amir Umarxonning otasi Norbo'taxonning ukalari bo'lgan. Tarixdan ma'lumki, Hojibekni amir Olimxon qatl qildirgan ekan. Mavlaviy Yo'ldosh, Muqimiy kabi insonlar shu madrasada ibodat qilganlar. Zavqiy, Muqimiy, G'aribiy domla kabi ma'rifat sohiblari shu mahallada yashaganlar. Hamza Hakimzoda Niyoziy birinchi jadid maktabini shu binoda ochganligi ma'lum).

Asta-sekin davra kengayib, unga taniqli olimlar ham qatnasha boshlaydilar. Toshkentdan O'zbekiston Milliy universitetidan adabiyotshunos olimlar, Andijon Davlat universitetidan tarix fanlari doktori, professor Sayfiddin Jalilov (1927-2021), Farg'ona davlat universitetidan olimlar, Qo'qon davlat pedagogika institutidan navoiyshunos olim, filologiya fanlari nomzodi Lutfullaxon Zohidov(1930–2015), u kishining akasi Sa'dullaxon Zohidov(1922–2008), adabiyotshunos, filologiya fanlari nomzodi Abdullatif Turdialiyevlar kelib qatnashib turardilar. Tevarak-atrof tumanlardan ham ko'ngilli ishtiyoqmandlar kelib davraga qo'shilib, ancha katta anjuman tashkillanardi.

Hozirda o'n besh kunda bir marta Navoiy ixlosmandlari yig'ilishib, an'anani davom ettirmoqdalar. Ibrohimjon hoji Saydullayev va boshqa olimlar Navoiyning "Debocha", "Vaqfiya" asarlarini tabdil qilib, nasriy bayonlarini tuzganlar. Sho'ro davrida Navoiy va Boyqaro munosabatlari haqida noto'g'ri shakllanib qolgan ayrim qarashlarni bartaraf etuvchi tarixiy manbalar yig'ilib, alohida kitob sifatida chop qilishga tayyorlangan. Umuman, Navoiy ijodining noto'g'ri talqinlari o'rniga uni yangidan sharhlash ishlari olib borilmoqda. Hozirgi kunda Qo'qon shahri bo'yicha, O'zbekiston bo'yicha faqat shu mahallada (navoiyxonlik o'tkaziladigan ushbu guzar shahardagi to'rtta mahallaning o'rtasida joylashgan bo'lib, shu to'rt mahallaga ham ilm, ma'naviyat nurini ulashadi) navoiyxonlik kechalari o'tkazib kelinadi. Ushbu

⁴ Л.Зохидов билан 1999 йил Қўқонда ўтказилган суҳбат асосидаги ф.ф.д. Афтондил Эркинов маълумоти.

unikal hodisa natijasi, oqibatida mahalladagi yoshlar orasida ham Navoiy ijodiga qiziqish kuchaygan, shuningdek jamiyat ma'naviy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan kitoblar dunyo yuzini ko'rmoqda. Ushbu anjumanlar natijasida "Mahbub ul-qulub" asarining tabdili, "Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar" (navoiyshunos olimlarning maqolalari jamlangan), "Navoiy hikmatlari" ("Xamsa"dagi temuriy shahzodalarga nasihatlar jamlangan) kitoblari nashr qilindi⁵.

2006 yili folklorshunos olim, filologiya fanlari nomzodi Abdimurod Tilavov tashabbusi bilan Qo'qon shahrida o'tkazilgan mana shunday navoiyxonlik anjumani videoga yozib olingan. Mazkur anjuman 2006 yili O'zbekiston televideniyesi orqali ham namoyish etilgan⁶. Unda O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi Alibek Rustamov (1931-2013), filologiya fanlari nomzodi Omonilla Madayev (1942-2019), Sa'dullaxon Zohidovlar ham ishtirok etganlar.

Bu hodisa biz ko'rib o'tayotgan davr Qo'qon adabiy muhiti rivojida muhim o'rin tutadi. Zamonaviy she'riyat bilan yonma-yon o'zbek mumtoz adabiyotidagi an'anaviy janrlar va yo'nalishda she'rlar yozish va navoiyxonlikning bir vaqtning o'zida yashab qolishi o'ziga xos adabiy va madaniy fenomen sifatida baholanishi mumkin. Navoiyxonlik yig'inlarining to bugungi kungacha davom etib kelishi Qo'qon adabiy muhiti an'analari hozirda ham qaysidir darajada yashab kelayotganligini ko'rsatadi.

Navoiyxonlik kechalarining o'tkazilishi natijasi o'laroq Mustaqillikdan keyin Qo'qon adabiy muhitida mumtoz adabiyot an'analarga bir qadar qiziqishning kuchayishi kuzatiladi. Bu hodisa adabiy tur va janrlar rivojida, mavzu va obrazlar tizimida ko'zga tashlanadi. Mustaqillikdan so'ng mumtoz adabiyot an'alarini davom ettirish respublikaning boshqa hududlarida ham ko'zga tashlanadi, biroq Qo'qonda ushbu an'ana kuchliroq namoyon bo'ldi. Bunga, albatta, navoiyxonlik kechalari ta'sir ko'rsatdi.

Adabiy turlar doimiy taraqqiyotda bo'lar ekan, bunga muvofiq janrlar sistemasi ham doimiy ravishda yangilanib turadi. O'tgan asr o'zbek adabiyotida, ayniqsa, bu jihatdan juda katta o'zgarishlar yuzaga keldi. Klassik janrlar o'rini G'arb adabiyoti ta'sirida kirib kelgan shakllar egallay boshladi. Nazmga ham, nasrga ham Yevropa adabiyoti janrlarining kirib kelishi, dramaturgiyaning paydo bo'lishi adabiy tushunchalarni o'zgartirdi, yangi adabiy an'alar paydo bo'ldi. Biroq bu mumtoz adabiyot janrlarining batamom yo'qolib ketishi hisobiga yuz bergan emas.

Mustaqillikka erishish, tuzumning, davrning o'zgarishi adabiyotga yangi ohanglar olib kirishi bilan birga, ma'lum bir darajada mumtoz adabiyot an'alarini, janrlarini ham qaytardi.

⁵Navoiyxonlik kechalari haqida ma'lumotlarni e'zishda 2022 yil, 20 iyul kuni I.Saydullaev, A.Turdiyalievlar bilan videosuhatdan manba sifatida foydalaniildi. Веб-манзил: <https://www.youtube.com/watch?v=E37evhZumQQ>.

⁶ Mazkur videoёзувни Абдимурод Тилавов 2006 йили Афтондил Эркиновга тақдим қилган.

Jumladan, muxammas janrining qayta tug'ilishini, uning juda ko'p namunalari mustaqillik davrida ijod qilgan atoqli shoirlarimiz ijodida uchratishimiz mumkin. Ushbu janrning bardavomligi asosan Qo'qon adabiy muhiti shoirlari ijodida ko'zga tashlanadi. Umarxon (Amiriy) davridan to hozirgi kungacha shoirlar ijodida bu janrning go'zal namunalari yaratildi. XX asrning o'rtalarida mumtoz she'riyat janrlarining tarixga aylanish xavfi tug'ilganda ham Qo'qon adabiy muhiti shoirlari ijodida asosiy janrlar davom ettirib kelindi.

Mustaqillik davrida esa mumtoz adabiyotning ko'p janrlari, jumladan, muxammas mustaqillik davri she'riyatida lirikadan mustahkam o'rin olgan janr sifatida namoyon bo'ldi. O'zlarini Navoiyning izdoshlari hisoblagan Qo'qon adabiy muhiti vakillaridan Aziziy (bu shoir akademik Azizxon Qayumov bo'lib, 1940-yillarda Qo'qon adabiy muhiti jarayonida faol bo'lgan), Komil Jo'ra, Habibullo Said G'ani, Anvar Yunus kabi shoirlar ijodida mumtoz adabiyot namoyandalaridan Alisher Navoiy, Fuzuliy va boshqa ko'plab shoirlar g'azallariga taxmislar va muxammaslar uchraydi.

Biz ijodini o'rgangan Qo'qon adabiy muhiti vakillaridan eng ko'p muxammaslar yozgan shoir Aziz Qayumovdir. Uning "Navoiyga ta'zim"⁷ to'plamidan Alisher Navoiyning 36 ta g'azaliga yozgan taxmisleri o'rin olgan. Keyinroq yana muxammaslar va shoirning boshqa she'rlaridan iborat to'ldirilgan to'plamlar qayta nashr etildi⁸.

1991 yilda Habibullo Said G'anining Navoiyning uch g'azaliga yozgan taxmisleri e'lon qilindi⁹. Bular ichida "Ashraqt min aksi shamsil ka'si anvorul hudo" satrlari bilan boshlanuvchi "Xazoyin ul-maoniy"ning birinchi g'azaliga bog'langan muxammas ancha mashhur bo'lib, unga yozilgan bir necha sharhlar ham paydo bo'ldi¹⁰. Bu g'azalga asrlar davomida biror mashhur o'tmish shoirining muxammas bog'lagani noma'lum. Muxammasni to'liq keltiramiz:

Shamsi anvar shu'lasidin har taraf rangin navo,
Olama har jilvasidin yog'ilur hamdu sano.
Tebratur nurlarni boda, subhidam nekbin havo,
Ashraqt min aksi shamsil ka'si anvorul hudo,
Yor aksin mayda ko'r deb jomdin chiqdi sado.

⁷ Aziz Qayumov. Navoiyga ta'zim. – Toshkent: Xalk merosi, 2002. – 41 b.

⁸ Aziziy (A.Qayumov). Navoiyga ta'zim. 2-kitob. – Toshkent, 2007. – 80 b. // Aziziy (Azizxon Qayumov). Navoiyga ta'zim. – Toshkent: 2016.

⁹ Xabibullo Said Fani. Navoiy g'azaliga muxammas // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Toshkent: 1991 йил, 26 июль. – Б.1.

¹⁰ Қаранг: Носир Зоҳид. Бир мухаммас жилваси // Меҳнат байроғи. – Қўқон: 1991 йил, 10 июнь. - №67. – Б.3; Носир Зоҳид. Ашрақат асрори. – Фарғона, 2004; Гулбаҳор Саидғаниева. Ҳабибулло Саид Ғанининг Навоий г'азалига бир мухаммаси хусусида // Адабиёт кўзгуси. – Toshkent: 2009 йил. - № 11. – Б.80-83.

Jom to'la may ishqidin yon, shodumonliqdir karam,
Soqiyo, qay sevgidin yig'lab ado bo'lgay bu sham?
Kimki oshiq o'ldi, andin bosh olib ketgay sitam,
G'ayr naqshidin ko'ngil jomida bo'lsa zangi g'am,
Yo'qtur, ey soqiy, mayi vahdat masallik g'amzudo.

Qay taraf tushsa nigohing ko'rinur har yon safol,
Vahki ko'ngil davlatidin o'zgasi yolg'on, safol.
Asli olam ichra olam ne ajab vayron safol,
Ey xush ul maykim, anga zarf o'lsa bir sing'on safol,
Jom o'lur getinamo, Jamshid ani ichgan gado.
Ko'ngil ichra yoshirin ishq mavji ummon ichra durr,
Qanchalar ersa zimiston, shuncha ravshan ko'rinur.
Ming jahondin ming xabar jom ichrakim sanchilsa nur,
Jomu may gar buyladir, ul jom uchun qilmoq bo'lur
Yuz jahon har dam nisor, ul may uchun ming jon fido.

May uchun el bormu da'vo bo'lg'ali, ey mug'bacha,
Jomda may yo'q ersa g'avg'o bo'lg'ali, ey mug'bacha.
Bir mayi ikromga ma'vo bo'lg'ali, ey mug'bacha,
Dayr aro hush ahli rasvo bo'lg'ali, ey mug'bacha,
Jomu may tutsang mene devonadin qil ibtido.

Qatra mayda jam' erurkim oyu yulduz kechalar,
To sahar ko'z yummagay maydin totib ul chehralar.
Behush ermas mayparastdek zavqi maydin nechalar,
Toki ul maydin ko'ngul jomida bo'lg'ach jilvagar
Chehrai maqsud, mahv o'lg'ay hamul dam moado.

Orazin ko'yida ichmakdin yo'q o'zga chorakim,
Jomi ishqdin ahli orif shodumon may ichsakim.
Yuz ochar getinamoda har sahar gulchehrakim,
Vahdate bo'lg'ay muyassar may bila jom ichrakim,
Jomu may lafzin degan bir ism ila qilg'ay ado.

Har kangul mayxona bo'lsa jom anga ma'bud erur,
 Yuvsal ko'ngil zangini may birla kim mas'ud erur?
 Bu fano dunyosida maysiz hayot ne sud erur,
 Sen gumon qilg'ondin o'zga jomu may mavjud erur,
 Bilmayin nafy etma bu mayxona ahlin, zohido.

Ey Habib, oshufta dil maygun azal soqiysidin,
 May xarobot ahli-chun ochun azal soqiysidin.
 Tutmish olam sathini ne un azal soqiysidin,
 Tashnalab o'lma, Navoiy, chun azal soqiysidin:
 « Ishrabu yo ayyuhal atshon!» kelur har dam nido¹¹.

Taxmisni o'qir ekanmiz, bandlarda shoirning lirik kechinmani Navoiy g'azaliga vazn, qofiya, gap qurilishi, mazmun va g'oya jihatdan yaqin ifodalaganini ko'rishimiz mumkin.

Azixon Qayumovning ham aynan shu g'azalga taxmisi bir nechta kitoblarida e'lon qilingan. Ko'zga ko'ringan farq shuki, Habibullo Said G'ani taxmisining birinchi bandida dastlabki uch misra o'zbekcha yozilgan bo'lsa, Azixon Qayumov bu bandning dastlabki uch misrasini qoidaga muvofiq "shiru shakar" uslubida yozgan (qoidaga ko'ra, g'azal matla'si qaysi tilda yozilgan bo'lsa, shu tilda yozilishi kerak):

Assalom ahlan va sahlana asdiqou aqrabo,
 Barcha shokirlar, vafolilar, hama ahli rizo,
 Nazhabu naxnu tariqi, allaziy, banno lino,
 Ashraquat min aksi shamsil ka'si anvor ul hido,
 Yor aksin mayda ko'r deb jomdin chiqti sado.

O'tganu kelmas g'amidin xotiringni ayla jam',
 Ayni umring davriga markaz emishdur ushbu dam.
 Garchi turmush ilkinga oltin qadah tutganda ham
 G'ayr naqshidin ko'ngil jomida bo'lsa zangi g'am,
 Yo'qtur, ey soqiy, mayi vahdat masallik g'amzudo.

¹¹ Хабибулло Саид Ғани. Осмон каби мангу. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014. – Б.130-131.// Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент: 1991 йил, 26 июль. – Б.1.

Yillar o'tdi. Har qachon davron yetkazdi malol,
Lek kasbim tozalik, luqmam edi doim halol.
Za'fli bir kosa menga tuhfa qilmishdi kulol,
Ey xush ul maykim, anga zarf o'lsa bir sing'on safol,
Jom o'lur getinamo, Jamshid ani ichgan gado.

Bu safol har qayda ham beg'ash sharob birlan to'lur,
Ushbu may borida shodlik avj olar, kulfat so'lur,
Ohari umrim yaroqlar, qayg'u changi to'kilur,
Jomu may gar bo'yladur, ul jom uchun qilmoq bo'lur
Yuz jahon har dam nisor ul jom uchun ming jon fido.

Kechau kunduz sharobi nobdin totsang agar,
Gavhari imoniga bir zarra bo'lmaydur zarar,
Boshing uzra porlagusi doim alvoni zafar,
Toki ul maydin ko'ngul jomida bo'lg'ach jilvagar,
Chehrai maqsud mahv o'lg'ay hamul dam moado.

Kimki ichsa umr achchiq bodasin bexud erur,
Qismatiga rozi ermasdin anga ne sud erur,
Dayr piriga bo'yin eggan odam behbud erur,
Sen gumon qilg'ondin o'zga jomi may mavjud erur,
Bilmayin nafy etma bu mayxona ahlin zohido.

Dahr agar paymona tutsa galma-gal soqiysidin,
Shukr ila sipqor ani olib jadal soqiysidin,
Yetmasin desang Aziziydek xalal soqiysidin,
Tashnalab o'lma, Navoiy, chun azal soqiysidin
"Ishrabu yo ayyuhal atshon!" kelur har dam nido¹².

Eng qizig'i, shoir Aziziy 2016 yilda chop etilgan "Navoiyga ta'zim" kitobiga ushbu taxmisni kiritgan, lekin noshirlik xatosi bilan bo'lsa kerak, dastlabki ikki band tushib qolib, she'r

¹² АЗИЗИЙ (Азиз Қажумов). Навоийга таъзим.2-китоб. – Тошкент, 2007. – Б.5.

faqat besh banddan iborat bo'lib qolgan¹³. Bu esa ijodkor mahorati haqida to'liq tasavvur olishga ta'sir ko'rsatadi. Oldingi nashrlarda, masalan, 2007 yilda nashr qilingan to'plamda muxammas to'liq berilgan¹⁴.

Navoiy g'azali asli to'qqiz baytlik bo'lib, Habibullo Said G'ani to'qqiz baytga ham taxmis bog'lagan, Aziziy esa:

“Dayr aro hush ahli rasvo bo'lg'ali, ey mug'bacha,
Jomu may tutsang mene devonadin qil ibtido.

Vahdate bo'lg'ay muyassar may bila jom ichrakim,
Jomu may lafzin degan bir ism ila qilg'ay ado”
baytlaridan tashqari, qolgan yetti baytga taxmis bog'lagan.

Ikki muallifning muxammasi o'rtasidagi farq faqat shakliy jihatda ko'rinmaydi, balki farq Navoiy badiiy olamini, poetik tafakkurini anglash, his qilishdadir. Shoir Habibullo Said G'ani taxmisidagi ushbu band badiiy-evfonik jihatdan ta'sirchanroq, tasavvufiy ramzlarga boy bo'lsa, Aziziyning taxmisida bu bandda fikr salmog'i kuchliroq. Yana poetik mahorat, badiiyat masalasi ham o'quvchi zavqini uyg'otishning asosidir.

“Muhabbat gulshani” nomli zamonaviy devon tartib etgan shoir Komil Jo'ra ham Lutfiy, Nodira, Charxiy, Sobir Abdulla, Surmaniso, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Habibullo Said G'ani, Ergash Muhammadjonovlar g'azallariga taxmislar va muxammaslar yozgan¹⁵. Ko'rinadiki, shoir taxmis bog'lashda nafaqat o'tmish shoirlari ijodidan g'azallar tanlaydi, balki zamondoshlari ijodiga ham katta e'tibor bilan qaraydi, yuragiga yaqin g'azallarga murojaat qiladi.

Anvar Yunusning “Seni sog'inaman”, “Muhabbat tumori”¹⁶ kitoblaridan shoirning Atoiy, Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy, Bobur, Mashrab, Huvaydo, Ogahiy, Amiriy, Uvaysiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Hamza, Haziniy, Charxiy, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Jamol Kamol, Oxunjon Hakim, Komil Jo'ra, Habibullo Said G'ani, Zuhro Aliyeva, Karima Ashurova g'azallariga va o'z g'azaliga taxmisleri o'rin olgan. Ushbu shoir ijodida ham o'tmish ijodkorlari g'azallari bilan bir qatorda o'z zamondoshlari ijodiga ham ko'p murojaat qilinganini ko'ramiz.

¹³ Aziziy (Azizxon Qajumov). Navoiyga ta'zim. – Toshkent: 2016. – B.17.

¹⁴ Aziziy (Aziz Qajumov). Navoiyga ta'zim.2-kitob. – Toshkent, 2007. – B.5.

¹⁵ Komil Jo'ra. Muhabbat gulshani. – Toshkent: E'zuvchi, 2002. – 112 b.

¹⁶ Anvar Yunus. Seni sog'inaman. – Toshkent: E'zuvchi, 1997. – 144 b; Anvar Yunus. Muhabbat tumori. Fazallar, muxammaslar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 146 b.

Bir necha she'riy to'plamlar, ko'plab g'azallar muallifi Mansur Abdullo ham Javdat, Uvaysiy g'azallariga taxmislar hamda mustaqil muxammaslari bilan janr taraqqiyotiga hissa qo'shgan¹⁷.

XULOSA

Fikrlarimizni xulosalaydigan bo'lsak, muxammas mumtoz adabiyotdagina emas, bugungi o'zbek she'riyatida ham lirikaning asosiy janrlaridan biri sifatida yashab kelmoqda. Uning bardavomligini ta'minlash va boyitishda Qo'qon adabiy muhiti shoirlarining hissasi katta bo'lib, ayniqsa, Qo'qon adabiy muhitining o'ziga xos jihatini belgilovchi xususiyatlardan biriga aylangan.

Qo'qon adabiy muhitida asrlar davomida o'tkazib kelingan (ularda asosan madrasani bitirgan, mumtoz she'riyat tarixi va xususiyatini yaxshi bilgan ziyolilar qatnashgan) navoiyxonlik, fuzuliyxonlik, bedilxonlik yig'inlari bugungi adabiy muhitga ham o'z ta'sirini o'tkazgan.

Mana shunday muayyan muallif she'rlarini o'qib tahlil qilish yoki she'rxonlik yig'inlarini o'tkazish an'anasidan hozirga qadar Qo'qonda navoiyxonlik saqlanib kelmoqda va keyingi yillarda u yangidan jonlanmoqda, ularda oddiy aholi ham ishtirok etmoqda. Navoiyxonlik Qo'qon adabiy muhitini tadqiq qilishda o'ziga xos adabiy, keng ma'noda, madaniy-ma'rifiy manba sifatida xizmat qilishi mumkin ekanligini isbotlamoqda.

Qo'qon adabiy muhitida mumtoz adabiyot an'analari Mustaqillikdan avval ham, keyin ham va bugunga qadar ham yashab kelmoqda. Ayni muhitda o'lkamizning boshqa regionlariga qaraganda, mumtoz she'riy janrlarda ijod qilish kengroq yoyilgan. Bunga Qo'qon adabiy muhitining XIX asrdagi shakllanishi va keng miqyosda rivojlanishiga saroy muhitida o'zining yuqori darajasiga yetgan mumtoz adabiyot an'analari tarixi va ta'sir katta bo'lganligi sabablardan biridir. Qo'qon adabiy muhiti qiyofasini belgilashda mumtoz she'riyatimiz yo'lida hozirga qadar yozib kelinayotgan she'rlarning manbaviy ahamiyati katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://www.youtube.com/watch?v=E37evhZumQQ>.
2. Jabborov N. Qo'qon adabiy muhitining jahoniy e'tirofi.//Qo'qon adabiy muhiti va uchinchi renessans. – Farg'ona, 2022. – B.167-180.
3. Qayumov A. Navoiyga ta'zim. – Toshkent: Xalq merosi, 2002. – 41 b.
4. Aziziy (Aziz Qayumov). Navoiyga ta'zim. 2-kitob. – Toshkent, 2007. – 80 b.
5. Aziziy. Navoiyga ta'zim. Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2016. – 214 b.
6. Anvar Yunus. Muhabbat tumori. G'azallar, muxammaslar.- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 146 b.
7. Anvar Yunus. Seni sog'inaman. – Toshkent: Yozuvchi, 1997. – 144 b;

¹⁷ Мансур Абдулло. Сенсиз дилимга сифмас. – Фарғона: 1994. – Б.18-23.

8. Saidg'aniyeva G. Habibullo Said G'anining Navoiy g'azaliga bir muxammasi xususida // Adabiyot ko'zgusi. – Toshkent: 2009 yil. - № 11. – B.80-83.
9. Do'stqorayev B. O'zbek jurnalistikasi tarixi. Toshkent, 2009.
10. Zohidova D. Aruz ilmi. Toshkent: Muharrir, 2012, 128 b.
11. Ibragimov B. Xo'qandi latif farzandlari. 2 jildlik. Birinchi kitob. - Toshkent: 2009. - 196 b.
12. Ibragimov B. Xo'qandi latif va qo'qonliklar. – Toshkent: 2011. – 172 b.
13. Imomnazarov M. Akademik Azizxon Qayumov maktabi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – B.184.
14. Komil Jo'ra. Muhabbat gulshani. – Toshkent: Yozuvchi, 2002. – 112 b.
15. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. – Toshkent: Fan, 1961. – 360 b.
16. Qayumov A. Asarlar. VII jild, 1-kitob. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 280 b.
17. Qayumov A. Asarlar. VII jild, 2-kitob. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2012. – 252 b.
18. Mansur Abdullo. Sensiz dilimga sig'mas. – Farg'ona: 1994. – B.18-23.
19. Nosir Zohid. Ashraqt asrori. – Farg'ona, 2004;
20. Nosir Zohid. Bir muxammas jilvasi // Mehnat bayrog'i. – Qo'qon: 1991 yil, 10 iyun. - №67. – B.3;
21. Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot: (Adabiy-estetik, tanqidiy tafakkur tamoyillari). – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 328 b.
22. Salohiy D. Navoiyning she'riy uslubi masalalari. – Toshkent: Fan, 2005. –204 b.
23. Habibullo Said G'ani. Navoy g'azaliga muxammas // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent: 1991 yil, 26 iyul. – B.1.
24. Habibullo Said G'ani. Osmon kabi mangu. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. – 224 b.